

M.U. XAMIDOVA

MAXSUS PEDAGOGIKA

(Mutaxassislikka kirish)

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

M.U. XAMIDOVA

MAXSUS PEDAGOGIKA

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan**

TOSHKENT – 2018

UO‘K: 376(075)

KBK 74r

X-24

X-24 M.U. Xamidova. Maxsus pedagogika. – T.: «Fan va texnologiya», 2018, 164+8 bet rasm.

ISBN 978–9943–11–857–7

Ushbu o‘quv qo‘llanma defektologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, muallif talabalarni alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar toifalari, ularni o‘qitish, tarbiyalash, ijtimoiy-mehnatga moslashuvi masalalari bilan tanishtiradi. Bu bilimlar kelajakdagi pedagoglarga o‘quvchilardagi o‘zlashtirmovchilikning sabablarini erta aniqlash va ota-onalarga ta’lim muassasalarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi.

UO‘K: 376(075)

KBK 74r

Taqrizchilar:

P.M.Po‘latova – p.f.n., dots.;

M.F.Xakimova – p.f.d., prof.

ISBN 978–9943–11–857–7

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2018.

SO‘Z BOSHI

Ushbu uslubiy qo‘llanmada alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari, ularning rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Alohida yordamga muhtoj bola maxsus yondashuvni talab etadi. Bolani shakllantirishni samarali amalga oshirish uchun har bir yosh davrlarida bola rivojlanishining psixologik qonuniyatlari haqidagi bilimlarni chuqur egallash darkor. Ushbu qonuniyatlarni esa korreksion pedagogika, maxsus psixologiya fanlari o‘rganadi. Demak, korreksion pedagogika va maxsus psixologiya alohida yordamga muhtoj bolalar realitatsiyasining ilmiy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu o‘quv qo‘llanmani yaratishda bir qator olimlar L.S. Vigotskiy, B.V. Zeygarnik, B.S. Bratus, V.V. Lebedinskiy, M.A. Vlasova, M.V. Pevzner, G.E. Suxareva, A.E. V.G.Petrova, S.Ya.Rubinshteyn, G.M.Dulnev, M.F.Gnezdilov, M.N.Petrova, R.E.Levina, O.P.Gavrilushkina, M.V.Ippolitova, A.R.Madler, G.V. Sikoto kabi va boshqa alohida yordamga muhtoj bolalarning ta‘limi va tarbiyasi muammolariga bag‘ishlangan ilmiy ishlari keng qo‘llanildi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar toifalari, ularni o‘qitish, tarbiyalash, ijtimoiy-mehnatga moslashuvi masalalari bilan tanishtiradi. Bu bilimlar kelajakdagi pedagoglarga o‘quvchilardagi o‘zlashtirmovchilikning sababalarini erta aniqlash va ota-onalarga ta‘lim muassasalarini to‘g‘ri tanlashga yordam beradi.

Shuningdek, masalaga qiziqqan talaba, magistrant, ijtimoiy pedagog, psixolog, tarbiyachi va o‘qituvchilar ham foydalana olishlari mumkin.

Qo‘llanmaning oxirida ushbu kitobda adabiyotlar ro‘yxati va adabiyotlarda uchraydigan atamalar lug‘ati berilgan.

I BOB. DEFEKTOLOGIYA FANINING UMUMIY ASOSLARI

1. Maxsus pedagogikada «Defektologiya mutaxassisligiga kirish» bo'limi va uning vazifalari

Sog'lom avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirish g'oyatda mas'uliyatli vazifa, shuning bilan birga, insonparvar siyosat natijasidir.

Ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotga oid chuqur o'zgarishlar kundalik turmushimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu bilan birga, jamiyatimizda yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarish jismoniy va ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ko'payishiga ham sabab bo'ladi. Bu sayyoramiz aholisining birdan o'n qismini tashkil etadi. Umumjahon sog'liqni ekologik saqlash tashkiloti ma'lumotlari dunyoda bunday kishilar soni 13%ga yaqinligidan dalolat beradi. Shundan 3% intellektida kamchiligi bo'lgan bolalar, 10% turli ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bolalardir. Mustaqil O'zbekistonimizda nogironlar bolalikdan ijtimoiy himoya qilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», unga muvofiq ravishda qurilayotgan yuzlab bolalar bog'chalari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, yoshlar muassasalari aynan sog'lom avlod va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilganidir.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 19-moddasining qoidalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar. Binobarin huquq va majburiyatlar birligi subektning o'z manfaatlari bilan jamiyatning ijtimoiy manfaatlar o'rtasida muvozanat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov 2007 yilni «Ijtimoiy himoya-yili» deb e'lon qildi. Bu yilning maxsus ta'limga tegishli jihatlarini ko'p. «Ijtimoiy himoya» davlat dasturida